

O'zbekiston Respublikasi  
Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi  
Agrosanoatni rivojlantirish  
agentligi direktorining  
2025-yil \_\_13\_\_ - maydagi  
\_\_22 um -son buyrug'iga 3-ilova

**“O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi  
Agrosanoatni rivojlantirish agentligi markaziy apparati, tizim tashkilotlari va  
muassasalarida manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida**

**NIZOM**

**1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizomning maqsadi manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Mazkur nizom Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligining markaziy apparati (*keyingi o'rinlarda – Agentlik*), tizim tashkilotlari va muassasalari (*keyingi o'rinlarda – tizim tashkilotlari*) nisbatan tatbiq etiladi.

Mazkur Nizom o'z ustav fondida (ustav kapitalida) Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining ulushi jami 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslarga nisbatan faqat ularning davlat xaridlari sohasidagi munosabatlarga tatbiq etiladi.

2. Mazkur Nizom talablari Agentlik va tizim tashkilotlarining barcha boshqaruv xodimlariga egallab turgan lavozimi va bajarayotgan xizmat vakolatlaridan qat'iy nazar qo'llanilib, yuzaga kelgan va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq masalalaridagi asosiy ichki hujjat hisoblanadi va so'zsiz rioya qilinishi shart.

3. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimi** - Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida yoxud saylab qo'yiladigan yoki tayinlanadigan lavozimlarda mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan boshqaruv xodimi;

**manfaatlar to'qnashuvi** - shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o'z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi) vaziyat;

**manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha maxsus bo'linma (keyingi o'rinlarda maxsus bo'linma deb yuritiladi)** - Agentlik va tizim tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari yoki Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'linmalari (*maxsus bo'linma shtati nazarda tutilmagan*

*tashkilotlarda ushbu vazifa Manfaatlarni to'qnashuvi to'g'risidagi Qonuniga asosan Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'linmalariga yuklatiladi);*

**xodimga aloqador shaxslar** - xodimning yaqin qarindoshlari hamda xodim va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxs;

**shaxsiy manfaatdorlik** — Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimi yoxud u bilan aloqador shaxslar ushbu xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita qaror qabul qilinishi yoki xodimning ushbu jarayonda boshqacha tarzda ishtirok etishi natijasida olishi mumkin bo'lgan har qanday naf yoki afzallik;

**yaqin qarindoshlar** — ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar, qizlar, er-xotinlar, shuningdek er-xotinlarning ota-onalari, aka-ukalari, opa-singillari va farzandlari.

4. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarida manfaatlarni to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning va davlatning qonuniy manfaatlari ustuvorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

xolislik;

korruptsiyaga nisbatan murosasizlik.

## **2-bob. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimlari va ularga aloqador shaxslarning manfaatlarni to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish chog'idagi huquq va majburiyatlari**

5. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimi manfaatlarni to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish chog'ida:

maxsus bo'linmaga maslahat so'rab murojaat etish;

ehtimoliy manfaatlarni to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyada ko'rsatilishi kerak bo'lgan ma'lumotlardan tashqari qo'shimcha ma'lumotlarni elektron yoki yozma shaklda taqdim etish huquqiga ega.

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimi:

o'z lavozim majburiyatlarini yoki xizmat vakolatlarini vijdonan bajarishi va ularning bajarilishiga ta'sir ko'rsatadigan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan o'z shaxsiy manfaatlari bilan bog'liq har qanday harakatlardan o'zini tiyishi;

lavozim majburiyatlarini yoki xizmat vakolatlarini bajarish chog'ida manfaatlarni to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasligi;

mavjud manfaatlarni to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, o'z ish yurituvidagi hujjatlar bo'yicha qaror qabul qilinguniga qadar o'zining bevosita rahbarini (tashkilot rahbari - yuqori turuvchi rahbari) yoki maxsus bo'linmani xabardor qilishi;

o'zining bevosita bo'ysunuvidagi xodimlarni yoki boshqa xodimlarni bevosita yoki bilvosita o'zining shaxsiy manfaatlarini ko'zlovchi harakatlarga (harakatsizlikka) majburlamasligi;

o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari nazorati ostidagi tashkilotdan yoki uning tarkibiy bo'linmasidan ishga qabul qilish to'g'risida takliflar kelib tushganligi holati haqida bir ish kuni ichida xabar berishi;

boshqa xodimlarga nisbatan o'ziga ma'lum bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi hollari to'g'risida xabar berishi;

ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish maqsadida maxsus bo'linmaning so'roviga ko'ra ma'lumotlar taqdim etishi shart.

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi va uning zimmasida boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

**6.** Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimiga aloqador shaxslarning manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish chog'idagi huquq va majburiyatlari.

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimiga aloqador shaxslar mazkur xodim mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari bilan munosabatlarga kirishganda:

manfaatlar to'qnashuvining oldini olish uchun maxsus bo'linmadan bepul maslahat olish;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha harakatlari (harakatsizligi) yoki qarorlari ustidan shikoyat qilish huquqiga ega.

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimiga aloqador shaxslar mazkur xodim mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari bilan munosabatlarga kirishganda:

shaxsiy manfaatlarini ko'zlab manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi;

ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani elektron yoki yozma shaklda to'ldirishi, unga bila turib yolg'on va noto'g'ri ma'lumotlarni kiritmasligi shart.

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimi bilan aloqador shaxslar tomonidan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyada bila turib yolg'on yoki noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilganligi ushbu Nizomda belgilangan huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

### **3-bob. Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlarining faoliyatida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha cheklovlar**

**7.** Manfaatlar to'qnashuvining oldini olish maqsadida Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimi:

xizmat mavqeini suiiste'mol qilish orqali shaxsiy naf olishga;

manfaatlar to'qnashuvi haqidagi axborotni oshkor etish chog'ida ma'lumotlarni yashirishga yoxud bila turib yolg'on yoki noto'g'ri axborot taqdim etishga;

biri boshqasiga bo'ysunuvchi yoki biri boshqasining nazoratidagi tashkilotlarda o'rindoshlik bo'yicha ishlashga, bundan qonunchilikda nazarda tutilgan hollar mustasno;

tijorat tashkilotlarining ta'sischisi (aksiyadori, ishtirokchisi) bo'lishga, bundan aksiyadorlik jamiyatlarining erkin muomalada bo'lgan aksiyalarining o'n foizigacha egalik qilish hollari mustasno;

o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining nazoratida bo'lgan tadbirkorlik faoliyati sub'ektining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilishga, shuningdek ushbu tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining boshqaruv organi a'zosi bo'lishga, bundan O'zbekiston Respublikasi qonunlarida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida nazarda tutilgan yoki bu faoliyat qonunchilikka muvofiq lavozim majburiyatlari hisoblanadigan hollar mustasno. Bunda Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari nazoratida bo'lgan tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining aksiyalariga yoki ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga egalik qilgan yoxud mazkur tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarining boshqaruv organlari a'zosi bo'lgan shaxs Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarida xodim lavozimini egallagan hollarda, u qonunchilikda belgilangan tartibda ushbu aksiyalarni yoki ulushlarni bir oy ichida realizatsiya qilishi, boshqaruv organlarining a'zolidan chiqishi kerak;

o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarida o'ziga taalluqli bo'lgan ishlarni ko'rib chiqishda yoki o'ziga aloqador shaxslarga taalluqli bo'lgan ishlarni ko'rib chiqishda vakil sifatida ishtirok etishga, agar u qonunchilikka muvofiq qonuniy vakil bo'lmasa;

o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan tashkilotning mol-mulkini sotib olishda yoki ijaraga olishda o'zi ishtirok etishga haqli emas.

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining o'zi bilan mehnat shartnomasi tugatilgan yoki xizmatdan bo'shatilgan xodimi ikki yil ichida oxirgi ish joyida o'zi bevosita yoki bilvosita nazoratni amalga oshirgan tashkilotlar yoki ularning tarkibiy bo'linmalari tomonidan ishga ushbu xodim mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirgan tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi nazorat bo'linmasi vazifasini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning xulosasiga asosan qabul qilinadi.

Ushbu band birinchi qismining beshinchi xatboshisida ko'rsatilgan cheklov faqat davlat organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, davlat maqsadli jamg'armalarining xodimlariga, davlat muassasalarining va davlat unitar korxonalarining, o'z ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi 50 foiz miqdorda va undan ortiq bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining rahbarlariga nisbatan tatbiq etiladi.

Ushbu band birinchi qismining sakkizinchi xatboshisida ko'rsatilgan cheklov Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimiga aloqador shaxslarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Ushbu Nizomning maqsadlarini nazarda tutgan holda mazkur bandeda «nazorat» deganda Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimining tegishli tashkilot faoliyatini

shaxsan yoki o'zining bo'ysunuvidagi shaxs orqali tekshirish yoxud unga nisbatan qonunchilikda belgilangan har qanday imtiyozlarni (preferensiyalarni) qo'llash yoki uni har qanday javobgarlikka tortish (javobgarlikka tortish bo'yicha tashabbus ko'rsatish) yoxud unga litsenziya va ruxsat etish xususiyatiga ega boshqa hujjatlarni berish (xabarnomani qabul qilish) huquqi tushuniladi.

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimi lavozim majburiyatlarining yoki xizmat vakolatlarining o'ziga xos xususiyati hisobga olingan holda, unga nisbatan qonunchilikda belgilangan boshqa cheklovlar qo'llanilishi mumkin.

#### **4-bob. Manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish**

**8.** Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari:

xodimlar tomonidan mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabardor qilish tizimini tashkil etadi;

ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyaning va mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnomaning belgilangan shaklini o'zining rasmiy veb-saytlariga joylashtiradi;

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda qabul qilingan qarorlarni belgilangan tartibda o'zgartiradi yoki bekor qiladi;

manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda tuzilgan bitimlarni o'zgartiradi yoki bekor qiladi yoxud bunday bitimlarni haqiqiy emas deb topish to'g'risida belgilangan tartibda sudga da'volar bilan murojaat etadi;

odob-axloq komissiyalarining va maxsus bo'linmalarining manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish bo'yicha faoliyatini tashkil etadi;

davlat organlarida yoki boshqa tashkilotlarda manfaatlar to'qnashuvining oldini olish bo'yicha ichki idoraviy tartibni belgilaydi;

aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha xizmat tekshiruvining xolisona tashkil etilishini va uning natijalari odob-axloq komissiyalari tomonidan ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

manfaatlar to'qnashuvining oldini olishda o'rnak bo'layotgan xodimlarni rag'batlantirish choralari ko'radi;

manfaatlar to'qnashuvi natijasida fuqarolarga, tashkilotlarga, jamiyatga yoki davlatga yetkazilgan zararning o'rni qoplanishini ta'minlash, shuningdek aholining tegishli davlat organiga yoki boshqa tashkilotga bo'lgan ishonchini tiklash choralari ko'radi.

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

**9.** Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari odob-axloq komissiyasining manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimi tomonidan ushbu Nizom talablariga rioya etilishi ustidan nazorat Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarida tuzilgan odob-axloq komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Odob-axloq komissiyasi:

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimi tomonidan ushbu Nizomda belgilangan talablarga rioya etilishini ta'minlash choralari ko'radi;

manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish yuzasidan ko'rilayotgan choralarning yetarliligi (to'g'riligi) haqidagi masalalarni ko'rib chiqadi;

mavjud manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq hollar ustidan kollegial nazoratni amalga oshiradi;

ushbu Nizomda belgilangan talablarning Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimlari tomonidan buzilishlari mavjudligi (mavjud emasligi) to'g'risida xizmat tekshiruv natijalariga ko'ra xulosa chiqaradi;

manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabar qilmagan, bila turib yolg'on yoki noto'g'ri axborot taqdim etgan yoxud bunday axborotni yashirgan xodimni javobgarlikka tortish haqida Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining rahbariga taklif kiritadi.

Odob-axloq komissiyasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

**10.** Maxsus bo'linmaning manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish sohasidagi vakolatlari

Maxsus bo'linma:

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimi tomonidan aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi hollari to'g'risidagi axborotni umumlashtiradi;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining ushbu Nizom talablarini buzgan xodimiga nisbatan xizmat tekshiruvini o'tkazadi;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimlari o'rtasida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish yuzasidan qonunchilikka muvofiq tushuntirish ishlarini amalga oshiradi;

ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyalarni, shuningdek mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi xabarnomani ko'rib chiqadi, ularning natijalariga ko'ra odob-axloq komissiyasiga takliflar kiritadi;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimining manfaatlar to'qnashuvi haqidagi xabarlari munosabati bilan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risida xulosa beradi;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarida aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi hollarini tahlil qiladi hamda ularni tartibga solish bo'yicha takliflarni ishlab chiqadi;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarida ushbu Nizom talablariga rioya etilishi holati to'g'risidagi har yilgi hisobotlarni tayyorlaydi hamda hisobotlar rasmiy veb-saytga joylashtirilishini ta'minlaydi.

Maxsus bo‘linma qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

## **5-bob. Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotni oshkor etishga va manfaatlar to‘qnashuvini aniqlashga doir choralar**

**11.** Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotni oshkor etish Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimi tomonidan 1-ilovaga muvofiq mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabarnoma hamda 2-ilovaga muvofiq ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

**12.** Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimiga aloqador shaxslar tomonidan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborotni oshkor etish 3-ilovaga muvofiq ularning ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani taqdim etishi orqali amalga oshiriladi.

**13.** Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnomada quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak:

mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida xabar berayotgan Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimining familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi, shuningdek jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimining manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelayotgan yaqin qarindoshining familiyasi, ismi, otasining ismi, jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (mavjud bo‘lgan taqdirda) yoxud Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimiga aloqador shaxsning nomi va soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami;

mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi axborot.

Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi xabarnoma manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha ko‘rilgan choralarni o‘z ichiga olishi, Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimining va (yoki) uning bevosita rahbarining (ayrim hollarda, uning o‘rinbosarining) o‘z qo‘li bilan qo‘yilgan imzosi yoki elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlanishi kerak.

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimi quyidagi hollarda mavjud manfaatlar to‘qnashuvi o‘ziga ma’lum bo‘lib qolgan paytdan e’tiboran bir ish kuni ichida mavjud manfaatlar to‘qnashuvi haqidagi belgilangan shakldagi xabarnomani to‘ldirishi va o‘zining bevosita rahbariga (tashkilot rahbariga — yuqori turuvchi rahbarga) yoki maxsus bo‘linmaga taqdim etishi shart, agar:

yaqin qarindoshlari bevosita xodimning bo‘ysunuvidagi ishga qabul qilingan bo‘lsa (davlat fuqarolik xizmati lavozimlarining siyosiy guruhiga kiruvchi lavozimga ishga qabul qilingan hollar bundan mustasno) yoki xodimning ishiga fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida o‘ziga aloqador shaxslar jalb etilgan bo‘lsa;

u o‘ziga aloqador shaxslarga taalluqli masalalar bo‘yicha qarorlar qabul qilishda ishtirok etayotgan bo‘lsa;

yaqin qarindoshi tekshiruv o‘tkazilayotgan ob’ektda (yuridik shaxsda) tekshiruv yo‘nalishi bo‘yicha mas’ul mansabdor shaxs sifatida ishlayotgan bo‘lsa yoki mazkur tekshiruv ob’ekti (yuridik shaxs) unga aloqador shaxs bo‘lsa;

boshqa har qanday mavjud manfaatlar to‘qnashuvi o‘ziga ma’lum bo‘lib qolsa.

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari tarkibiy bo‘linmalarining rahbar xodimlari hamda maxsus bo‘linmaning rahbari manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish uchun mas’ul hisoblanadi.

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari tarkibiy bo‘linmasining rahbari mavjud manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha o‘z vakolatlari doirasida ko‘rilgan choralar to‘g‘risida maxsus bo‘linmaga bir ish kuni ichida axborot taqdim etishi shart.

Maxsus bo‘linma ko‘rilgan choralarning yetarliligi (to‘g‘riligi) to‘g‘risidagi masalani ko‘rib chiqish uchun axborotni uch ish kuni ichida odoq-axloq komissiyasiga taqdim etadi.

**14.** Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyada quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatilishi kerak:

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimining lavozimi hamda uning familiyasi, ismi, otasining ismi, shuningdek uning jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimi yaqin qarindoshlarining familiyasi, ismi va otasining ismi, ularning jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (mavjud bo‘lgan taqdirda), shuningdek ish joyi va lavozimi;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimi yoki uning yaqin qarindoshlari aksiyador bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatining rasmiy nomi va uning soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimining yaqin qarindoshi muassis (ishtirokchi), boshqaruv organi a’zosi bo‘lgan yuridik shaxsning rasmiy nomi, shuningdek uning soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami.

Ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiya uni to‘ldirgan Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimining o‘z qo‘li bilan qo‘yilgan imzosi yoki elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimi shaxsga doir ma’lumotlari o‘zgargan taqdirda, ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani to‘ldirishi va har yili 15-yanvardan kechiktirmay maxsus bo‘linmaga taqdim etishi kerak.

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlariga ishga qabul qilinayotgan nomzod, shuningdek boshqa ishga o‘tkazilgan xodim ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi belgilangan shakldagi deklaratsiyani to‘ldirishi va taqdim etishi kerak.

Maxsus bo‘linma:

ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi har yilgi deklaratsiyani har yili 15-fevralgacha umumlashtiradi va tahlil qiladi;

ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha choralarning yetarliligini (to‘g‘riligini) ta’minlash uchun har yili 1-martga qadar odoq-axloq komissiyasiga taklif kiritadi;

odob-axloq komissiyasi tomonidan qabul qilingan xulosaga asosan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish yuzasidan choralar ko'rish to'g'risida Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimining bevosita rahbariga yoxud birinchi rahbariga taklif kiritadi.

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimligiga nomzod ishga qabul qilinayotganda yoxud Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimi boshqa ishga o'tkazilayotganda, ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyani taqdim etganidan keyin maxsus bo'linma yuqorida nazarda tutilgan ishlarni besh kunlik muddatda amalga oshiradi.

**15.** Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimiga aloqador shaxslar tomonidan taqdim etiladigan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak:

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimiga aloqador shaxs hisoblangan jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, shaxsiy identifikatsiya raqami yoxud yuridik shaxsning nomi va soliq to'lovchining identifikatsiya raqami;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimining familiyasi, ismi va otasining ismi, lavozimi;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimi bilan qarindoshlik to'g'risidagi ma'lumotlar;

yuridik shaxsning Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimiga aloqadorligi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiya uni to'ldirgan jismoniy shaxsning yoki yuridik shaxs vakilining (ishonchli shaxsining) o'z qo'li bilan qo'yilgan imzosi yoki elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

**16.** Manfaatlar to'qnashuvini aniqlash quyidagi manbalardan olingan ma'lumotlarni o'rganish orqali amalga oshiriladi:

ushbu Nizomning 11-bandida nazarda tutilgan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyadan;

davlat xaridlari jarayonida olingan takliflardan, xarid komissiyasi majlislarining bayonnomalaridan, tuzilgan shartnomalardan;

jismoniy va yuridik shaxslarning Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimining faoliyatidagi mavjud manfaatlar to'qnashuvi yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi murojaatlaridan yoki xabarlaridan;

tijorat tashkilotlarining affillangan shaxslari va yakuniy naf oluvchilari (benefitsiarlari) ro'yxatlaridan;

O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish modulidan;

«FHDYo Yagona elektron arxivi» axborot tizimidan;

«Yagona milliy mehnat tizimi» idoralararo apparat-dasturiy majmuidan;

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysidan;

maxsus vakolatli davlat organi tomonidan o'tkazilgan o'rganish natijalari bo'yicha kiritilgan taqdimnomadan.

Ushbu band birinchi qismining beshinchi — to'qqizinchi xatboshilarida ko'rsatilgan manbalardan ma'lumotlar olish maxsus bo'linma rahbarining so'rovi bo'yicha amalga oshiriladi.

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimining ommaviy axborot vositalariga, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'iga joylashtirilgan mavjud manfaatlar to'qnashuvi yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi holatlari ular to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash va o'rganish orqali aniqlanadi.

Ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan ma'lumotlarni o'rganish maxsus bo'linma tomonidan amalga oshiriladi.

#### **6-bob. Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha ko'rilgan choralarni ko'rib chiqish va tekshirish**

**17.** Manfaatlar to'qnashuvi hollarini tartibga solish uchun ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi choralardan biri ko'rilishi kerak:

o'ziga nisbatan manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan rahbarning bevosita bo'ysunuvidagi Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimini manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelmaydigan boshqa rahbarning bo'ysunuvi o'tkazish;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimini manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kollegial organ tarkibidan ixtiyoriy ravishda o'zini o'zi rad etishi orqali yoki majburan chetlashtirish;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimining lavozim majburiyatlari yoki xizmat vakolatlari doirasini qayta ko'rib chiqish;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimining davlat organining yoki boshqa tashkilotning manfaatlar to'qnashuviga olib kelishi mumkin bo'lgan axborotidan va hujjatlaridan foydalanishiga cheklovlar belgilash;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimining yakka tartibda qarorlar qabul qilishga doir vakolatlarini qonunchilikka muvofiq amalga oshirishi ustidan kollegial nazoratni ta'minlash;

davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga o'zidagi shaxsiy manfaatdorlikni qonunchilikka muvofiq bartaraf etishi to'g'risida takliflar taqdim etish;

xodim tomonidan o'zi mehnat (xizmat) faoliyatini amalga oshirayotgan davlat organining yoki boshqa tashkilotning manfaatlariga zid bo'lgan shaxsiy manfaatdorligidan voz kechishi;

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimining shaxsiy manfaatdorligini bartaraf etish choralari ko'rish mumkin bo'lmagan taqdirda, xodimning roziligi asosida uni avvalgi lavozimiga teng boshqa lavozimga o'tkazish yoki mehnat shartnomasini (kontrakti) umumiy asoslarda bekor qilish.

Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha choralar Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari xodimining roziligi bilan ko'rilishi kerak.

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari tomonidan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solishga doir choralarni ko'rish chog'ida biror-bir shaxslarga, guruhlarga yoki tashkilotlarga afzallik, ustunlik berishga yoxud davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning xodimlarini, shuningdek fuqarolarni kamsitishga yo'l qo'yilmaydi.

Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari o'z xodimi bilan o'zaro kelishuvga ko'ra, manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish yuzasidan qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa choralarni ham ko'rish mumkin.

**18.** Manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish va aniqlashda ishtirok etadigan xodimlarga ishonib topshirilgan yoxud ularga kasbiy, xizmat yoki mehnat majburiyatlarini bajarishi munosabati bilan ma'lum bo'lib qolgan shaxslarning shaxsga doir ma'lumotlarini oshkor etishga yo'l qo'yilmaydi.

Agentlik va tizim tashkilotlari xodimining faoliyatidagi manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish chog'ida shaxsga doir ma'lumotlarni muhofaza qilish shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

**18.** Jismoniy va yuridik shaxslarning xodimdagi mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlariga kelib tushgan har bir murojaati yoki xabari qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda ko'rib chiqiladi hamda tekshiriladi.

Tekshirish davomida aniqlangan manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganligi bilan bog'liq hollar to'g'risidagi ma'lumotlar odob-axloq komissiyasi tomonidan maxsus bo'linma taqdim etganidan keyin o'n ish kuni ichida ko'rib chiqiladi.

Odob-axloq komissiyasi Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining rahbariga manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish bo'yicha choralarni ko'rish yoxud xodimni tegishli javobgarlikka tortish to'g'risida taklif kiritadi.

**19.** Agentlik va tizim tashkilotlari 4-ilovaga muvofiq Manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reestrini yuritadi.

Mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvlari Manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reestriga quyidagi asoslarga ko'ra kiritiladi:

ishga qabul qilishda nomzod tomonidan taqdim etilgan deklaratsiya asosida mavjud manfaatlar to'qnashuvi aniqlanganda;

xodim boshqa ishga o'tkazilgan taqdirda, o'zidagi mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi axborotni xabar qilganda;

xodim tomonidan taqdim etiladigan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi har yilgi deklaratsiya asosida mavjud manfaatlar to'qnashuvi aniqlanganda;

mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida xabarnoma taqdim etilganda;

ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida deklaratsiya taqdim etilganda;

rasmiy elektron ma'lumotlar bazalari orqali Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimida manfaatlar to'qnashuvi aniqlanganda;

kelib tushgan murojaatga yoki xabarga asosan Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimida manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi tasdiqlanganda;

qonunchilikda belgilangan tartibda o'tkaziladigan xizmat hamda boshqa turdagi tekshiruvlar natijasida xodimda manfaatlar to'qnashuvi aniqlanganda.

Manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reestriga ushbu bandning ikkinchi qismida ko'rsatilgan asoslardan tashqari quyidagi ma'lumotlar kiritiladi:

mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvlarini tartibga solish yuzasidan ko'rilgan choralar to'g'risidagi ma'lumotlar;

manfaatlar to'qnashuvini oshkor etish chog'ida bila turib yolg'on yoki noto'g'ri axborotni taqdim etgan yoxud bunday axborotni yashirgan davlat organining yoki boshqa tashkilotning xodimiga nisbatan ko'rilgan ta'sir choralari to'g'risidagi ma'lumotlar.

Maxsus bo'linma aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi hollarining hisobi o'z vaqtida va to'liq yuritilishi uchun javobgardir.

**20.** Agentlik va tizim tashkilotlarining odob-axloq komissiyasi mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvlari to'g'risida har yarim yilda xulosa qabul qiladi hamda ularni tartibga solish bo'yicha ko'rilgan choralarning yetarliligini (to'g'riligini) ko'rib chiqadi.

Odob-axloq komissiyasi aniqlangan manfaatlar to'qnashuvi hollarini maxsus bo'linma bilan birgalikda tahlil qiladi va Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimlari o'rtasida tushuntirish ishlarini olib boradi.

## **7-bob. Yakunlovchi qoidalar**

**20.** Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda qabul qilingan qarorlar yoki tuzilgan bitimlar sud tartibida haqiqiy emas deb topiladi.

Manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda qabul qilingan qaror yoki tuzilgan bitim haqiqiy emas deb topilganligi natijasida jismoniy yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlariga yetkazilgan zarar aybdor xodimlardan regress tartibida undirib olinadi.

**21.** Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining xodimi manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish yuzasidan Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlari tomonidan qabul qilingan qarorlar ustidan bo'ysunuv tartibida yuqori turuvchi tashkilotga, maxsus vakolatli davlat organiga yoki sudga shikoyat qilishga haqli.

**22.** Agentlik va (yoki) tizim tashkilotlarining faoliyatidagi manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish sohasida yuzaga keladigan nizolar qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

**23.** Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi  
huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligi  
markaziy apparati, hududiy bo‘linmalari, tizim  
tashkilotlari va muassasalarida manfaatlar to‘qnashuvi  
to‘g‘risida Nizomga 1- ilova

\_\_\_\_\_ga  
(bevosita rahbarning lavozimi va F.I.O.)  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_dan  
(xodimning lavozimi va F.I.O.)

Mavjud manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi  
XABARNOMA

Men ushbu xabarnomada o‘zim va menga aloqador shaxslarning mavjud  
manfaatlar to‘qnashuviga oid quyidagi ma’lumotlar to‘g‘risida xabar beraman:

1. Xodimga oid ma’lumotlar

|    |                                                                                                    |  |
|----|----------------------------------------------------------------------------------------------------|--|
| 1. | Identifikatsiya ID-kartasi yoki biometrik pasport ma’lumotlari (seriyasi, raqami, berilgan sanasi) |  |
| 2. | Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR) (mavjud bo‘lgan taqdirda)              |  |

2. Aloqador shaxslarga oid ma’lumotlar\*

| Xodimning yaqin qarindoshiga oid ma’lumotlar                                                                                                                                                            |                                                                                                    |  |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------|--|
| 1.                                                                                                                                                                                                      | Familiya, ismi, otasining ismi                                                                     |  |
| 2.                                                                                                                                                                                                      | Identifikatsiya ID-kartasi yoki biometrik pasport ma’lumotlari (seriyasi, raqami, berilgan sanasi) |  |
| 3.                                                                                                                                                                                                      | Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR)<br>(mavjud bo‘lgan taqdirda)           |  |
| Xodim qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki a’zosi bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxsga oid ma’lumotlar |                                                                                                    |  |
| 1.                                                                                                                                                                                                      | Yuridik shaxsning nomi                                                                             |  |
| 2.                                                                                                                                                                                                      | Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR)                                                  |  |

| Xodimning yaqin qarindoshi qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxsga oid ma'lumotlar |                                                   |  |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------|--|
| 1.                                                                                                                                                                                                                           | Yuridik shaxsning nomi                            |  |
| 2.                                                                                                                                                                                                                           | Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR) |  |

\*Xodim unga aloqador shaxslarning (xodimning yaqin qarindoshlari yoki xodimning yaqin qarindoshlari ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qiladigan yoxud boshqaruv organi rahbari yoki a'zosi bo'lgan yuridik shaxs) identifikatsiya ID-kartasi (biometrik pasporti), JShShIR, STIR bo'yicha ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'lmasa, u tomonidan tegishli pozitsiyalarda "ma'lumotga ega emasman" deb izoh ko'rsatilishi mumkin.

### 3. Mavjud manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha ma'lumot

|    |                                                    |  |
|----|----------------------------------------------------|--|
| 1. | Mavjud manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida ma'lumot |  |
|----|----------------------------------------------------|--|

Xodimning lavozimi

Shaxsiy imzo yoki elektron

raqamli imzosi

(Xodimning F.I.O.)

To'ldirilgan sana 20\_\_ yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_

### Xodimning bevosita rahbari

Mavjud manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha ko'rilgan chora:

---



---

Xodimning bevosita  
rahbarining lavozimi

Shaxsiy imzo yoki elektron

raqamli imzosi

(Xodimning F.I.O.)

To'ldirilgan sana 20\_\_ yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_

Mavjud manfaatlar to'qnashuvi aniqlangan holatlar Manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reestrida ro'yxatga olingan sanasi va tartib raqami: 20\_\_ yil "\_\_\_" "\_\_\_\_\_" ; \_\_\_\_\_-son.

**Xodimning ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi  
deklaratsiyasi**

Men, \_\_\_\_\_ ushbu  
(familiyasi, ismi, otasining ismi va uning lavozimi)

(yillik/ishga qabul qilinayotganda/boshqa ishga o‘tkazilayotganda)

to‘ldirayotgan deklaratsiyada o‘zim va menga aloqador shaxslarning ehtimoliy  
manfaatlar to‘qnashuviga oid quyidagi ma’lumotlarni oshkor qilaman:

**1. Xodimga oid ma’lumotlar**

|    |                                                                                                    |  |
|----|----------------------------------------------------------------------------------------------------|--|
| 1. | Identifikatsiya ID-kartasi yoki biometrik pasport ma’lumotlari (seriyasi, raqami, berilgan sanasi) |  |
| 2. | Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR) (mavjud bo‘lgan taqdirda)              |  |

**2. Aloqador shaxsga oid ma’lumotlar\***

| Xodimning yaqin qarindoshiga oid ma’lumotlar                                                                                                                                                                   |                                                                                                    |  |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------|--|
| 1.                                                                                                                                                                                                             | Familiya, ismi, otasining ismi                                                                     |  |
| 2.                                                                                                                                                                                                             | Identifikatsiya ID-kartasi yoki biometrik pasport ma’lumotlari (seriyasi, raqami, berilgan sanasi) |  |
| 3.                                                                                                                                                                                                             | Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR) (mavjud bo‘lgan taqdirda)              |  |
| <b>Xodim qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki a’zosi bo‘lsa, o‘sha yuridik shaxsga oid ma’lumotlar</b> |                                                                                                    |  |
| 1.                                                                                                                                                                                                             | Yuridik shaxsning nomi                                                                             |  |
| 2.                                                                                                                                                                                                             | Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR)                                                  |  |

|                                                                                                                                                                                                                                     |                                                   |  |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------|--|
| <b>Xodimning yaqin qarindoshi qaysi yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda boshqaruv organining rahbari yoki a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxsga oid ma'lumotlar</b> |                                                   |  |
| 1.                                                                                                                                                                                                                                  | Yuridik shaxsning nomi                            |  |
| 2.                                                                                                                                                                                                                                  | Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR) |  |

\*Xodim unga aloqador shaxslarning (xodimning yaqin qarindoshlari yoki xodimning yaqin qarindoshlari ustav fondi (ustav kapitali) aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qiladigan yoxud boshqaruv organi rahbari yoki a'zosi bo'lgan yuridik shaxs) identifikatsiya ID-kartasi (biometrik pasporti), JShShIR, STIR bo'yicha ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'lmasa, u tomonidan tegishli pozitsiyalarda "ma'lumotga ega emasman" deb izoh ko'rsatilishi mumkin.

**3. Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi ma'lumot**\_\_\_\_\_

---

---

**4. Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyada ko'rsatilishi kerak bo'lgan ma'lumotlardan tashqari qo'shimcha ma'lumotlar (agar mavjud bo'lsa)**

---

---

(xodim tomonidan manfaatlar to'qnashuvi vaziyati sifatida baholanadigan boshqa holatlar ko'rsatiladi)

Xodimning lavozimi

Shaxsiy imzo yoki elektron  
raqamli imzosi

\_\_\_\_\_  
(Xodimning F.I.O.)  
To'ldirilgan sana 20\_\_ yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_

Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi aniqlangan holatlar Manfaatlar to'qnashuvini hisobga olish reestrda ro'yxatga olingan sanasi va raqami: 20\_\_ yil "\_\_\_" "\_\_\_\_"; reestr raqami \_\_\_\_\_-son.

## Aloqador shaxslarning ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi to'g'risidagi deklaratsiyasi

Men \_\_\_\_\_, ushbu deklaratsiyada aloqador shaxs  
(familiyasi, ismi va sharifi)

sifatida o'zim va xodim (ishga kirayotgan nomzodning) ehtimoliy manfaatlar  
to'qnashuviga oid quyidagi ma'lumotlarni ma'lum qilaman:

|    |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |  |
|----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|
| 1. | Xodimga aloqador jismoniy shaxsning<br>shaxsiy identifikatsiya raqami (JShShIR)                                                                                                                                                                                                                                   |  |
| 3. | Xodimga aloqador yuridik shaxsning nomi                                                                                                                                                                                                                                                                           |  |
| 4. | Xodimga aloqador soliq to'lovchining<br>identifikatsiya raqami (STIR)                                                                                                                                                                                                                                             |  |
| 5. | Xodimning F.I.O. va lavozimi                                                                                                                                                                                                                                                                                      |  |
| 6. | Jismoniy shaxsning xodim bilan qarindoshligi<br>to'g'risidagi ma'lumotlar<br>(ota-onalar, aka-ukalar, opa-singillar, o'g'illar,<br>qizlar, er-xotinlar, shuningdek erxotinlarning ota-<br>onalari, aka-ukalari, opasingillari va farzandlari)                                                                     |  |
| 7. | Yuridik shaxsning xodim bilan aloqadorligi<br>to'g'risidagi ma'lumotlar<br>(xodim va uning uning yaqin qarindoshlari qaysi<br>yuridik shaxsning ustav fondi (ustav kapitali)<br>aksiyalariga yoki ulushlariga egalik qilsa yoxud unda<br>boshqaruv organining rahbari yoki a'zosi bo'lsa, o'sha<br>yuridik shaxs) |  |

Aloqador shaxs

Shaxsiy imzo yoki elektron \_\_\_\_\_  
elektron raqamli imzosi (F.I.O.)

To'ldirilgan sana 20\_\_ yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_

Ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi aniqlangan holatlar Manfaatlar to'qnashuvini hisobga  
olish reestrda ro'yxatga olingan sanasi va raqami: 20\_\_ yil "\_\_\_"  
"\_\_\_\_\_"; reestr raqami \_\_\_\_\_ son .

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi  
huzuridagi Agrosanoatni rivojlantirish agentligi  
markaziy apparati, hududiy bo‘linmalari, tizim  
tashkilotlari va muassasalarida manfaatlar to‘qnashuvi  
to‘g‘risida Nizomga 4- ilova

**Manfaatlar to‘qnashuvini hisobga olish reestri**

| T/r | Ma’lumot olingan sana | Mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini reestrga kiritgan xodimning F.I.O. | Xodim faoliyat yuritayotgan tarkibiy bo‘linmaning nomi va uning lavozimi | Manfaatlar to‘qnashuviga oid qisqacha ma’lumot | Manfaatlar to‘qnashuvining turi (mavjud yoki ehtimoliy) | Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha ko‘rilgan choralar | Maxsus bo‘linma tomonidan qabul kilingan xulosa raqami va sanasi, Odob-ahloq komissiyasi yig‘ilish bayonnomasi raqami va sanas | Ko‘rilgan choralarning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish bo‘yicha mas’ul shaxs | Maxsus bo‘linma xodimining o‘z qo‘li bilan qo‘yilgan imzosi yoki elektron raqamli imzosi va sana |
|-----|-----------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------|---------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.  | 2.                    | 3.                                                                                          | 4.                                                                       | 5.                                             | 6.                                                      | 7.                                                                   | 8.                                                                                                                             | 9.                                                                                     | 10.                                                                                              |
| 1.  |                       |                                                                                             |                                                                          |                                                |                                                         |                                                                      |                                                                                                                                |                                                                                        |                                                                                                  |
| 2.  |                       |                                                                                             |                                                                          |                                                |                                                         |                                                                      |                                                                                                                                |                                                                                        |                                                                                                  |
| ::  |                       |                                                                                             |                                                                          |                                                |                                                         |                                                                      |                                                                                                                                |                                                                                        |                                                                                                  |

”

.